

BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA‘LIM O‘QITUCHILARINING KASB- HUNARGA YO‘NALTIRISHDAGI MUAMMO VA YECHIMLARI

Qodirov Mansur Erkinovich.

JDPU Sirtqi bo‘lim, Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy

ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Egamberdiyev Norbo‘ta Narziqulovich.

JDPU Texnologik ta‘lim yo‘nalishi

Ikkinchi mutahassislik 4-bosqich talabasi

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimizi bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

(Sh. M. Mirziyoyev)

Annotatsiya: Ushbu maqolada 20-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning maktablarda xorijiy tillar va kasb o‘rgatish tizimini rivojlantirish masalalari bo‘yicha kengaytirilgan yig‘ilishi, o‘tkazildi. Bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarini kasbga yo‘naltirishda dastlabki pedagogik jarayonlar tahlil etilgan bo‘lib, bu jarayonda ularning pedagogik mahorati, kasb tanlashga oid bilim va ko‘nikmalari, vazifalari, shuningdek kasb tanlashda shaxs hislatlari, o‘quvchi psixologiyasi, o‘quvchilarni kasb tanlashga tayyorligini ko‘rsatuvchi mezonlar mazmuni va o‘sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo‘naltirish hamisha davlatimiz, siyosatimiz oldida turgan ustivor masalalardan sanalib kelingan. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimizning ota-onalari hamda Oliy o‘quv yurtlarining o‘rni haqida ma‘lumot berilgan.

Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta‘limdagi islohotlar jarayonida mustaqil ta‘limni rag‘batlantirish muhim yo‘nalish sifatida kelmoqda. Pedagogning kasbiy layoqatliligini tarbiyalash fenomenini tadqiq qilishga bir qator olimlarning ishlarida o‘z ifodasini topgan. Bu mualliflar kasbiy

layoqatlilik – ishonchlilik sifatleri bilan birgalikda bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy – individual hodisa sifatida pedagogik madaniyatini tavsiflaydi degan fikrlar bilan bir qatorda jamiyatda ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishi hamda turli sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellekt va ahloqiy rivojlanib kelmoqda.

Bunga yaqqol misool joriy yilning 20 yanvar kuni maktablarda xorijiy tillar va kasb o‘rgatish tizimini rivojlantirish masalalari bo‘yicha kengaytirilgan yig‘ilish o‘tkazildi.

Prezidentimiz xalqimizga Murojaatnomasida “ijtimoiy davlat” tamoyiliga alohida e’tibor qaratgan edi. Aynan aytganda, “Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir”deb alohida ta’kidlab o‘tdi.

Bunga erishishning asosi, birinchi navbatda, ta’lim. Shu bois Murojaatnomada maktab o‘quvchilarini kamida ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish ustuvor vazifa etib belgilangan edi.

So‘nggi yillarda ta’limga, o‘qituvchilarga e’tibor oshdi, oliy ta’limda qabul kvotalar soni va yo‘nalishlar ko‘paydi. Albatta bu maktablardagi sifatli ta’limni oshirishga udaydi. Endi 11 yil maktabda o‘qigan bola ikkita chet tilini mukammal o‘rganib yaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalansa kelajakda yetuk mutaxassislar erishamiz. Bu esa maktab bitiruvchilarining 50 foizi mehnat bozoriga hech qanday kasbga ega bo‘lmasdan kirib kelishini oldi olinib kasblarni ruvojanlashiga olib keladi natijada kasb egallagan yoshlar soni ortib, davlatimiz iqtisodiyotining rivoji jadallashadi.

Shu bois yig‘ilishda xorijiy tillarni o‘qitish sifatini oshirish va o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish masalalari muhokama qilindi.

– Maktabdan kasb va tilni bilib chiqqan bola jamiyatimizning katta yutug‘i, bilmagani muammo, – dedi Shavkat Mirziyoev.

Bu tajribani joriy etish uchun har bir viloyatdan bittadan shahar va ikkitadan tuman tanlab olingan. Ulardagi 2 mingdan ortiq maktablarning sharoiti, pedagoglar malakasi, o'quvchilarning kasb-hunar va xorijiy tillarga qiziqishi o'rganilgan.

Endi tuman va mahallalarning xususiyatidan kelib chiqib, o'quvchilar maktabning o'zida 64 xil ishchi kasblarga o'rgatilishi ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, o'quvchilarni axborot texnologiyalari va "kreativ industriya" bo'yicha zamonaviy kasblarga o'rgatish muhimligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda viloyat hokimlari tanlangan maktablar misolida xorijiy tillar va kasb o'rgatishni rivojlantirishga oid rejalar yuzasidan axborot berdi.

Ma'lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorligi uning faqarolarining aqliy jihatdan yetukligi va axloqiy salohiyatining yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Asrlar davomida saqlanib kelinayotgan xalqning boy intellektual merosi hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida madaniyat, ma'rifat, fan-texnologiya va iqtisodiyotning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir.

Kasblar bo'yicha birlamchi bilim, ko'nikmalarni shakllantirish uchun professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshirilmoqda. Bu borada respublikamizda "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi" tashkil etilgan. Bu markaz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida ko'zda tutilgan jamiyat ehtiyoji va mehnat bozori talablari asosida o'quvchilarning o'z qiziqishlari, qobiliyatlari va sog'liqlariga mos bo'lgan kasb-hunarlarini tanlashlariga ko'maklashadi. Ushbu markaz o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va o'rnatilgan tartibga amalga oshirilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki yoshlarimizni to'g'ri kasbga yo'naltirish, bu kasbiy o'zini o'zi aniqlashga yordam berishga qaratilgan tadbirlar tizimidir.

Bo'lajak texnologiya ta'lim o'qituvchilari kasbga yo'naltirish maqsadi — shaxsning ma'lum bir kasbiy faoliyat yo'nalishiga moyilligini aniqlashga yordam beradi. Bu esa har bir bola iste'dodli va ma'lum bir sohada o'z iste'dodini tatbiq eta oladi degan fikrga asoslanadi. Kasbga yo'naltirishning turli xil usullari mavjud — kelajakdagi kasbni tanlashda duch keladigan o'spirin bilan, uning qiziqishlari va sevimli mashg'ulotlarini muhokama qiladigan mutaxassislar bilan suhbatlar, shuningdek, standartlashtirilgan usullar mavjud, ularning natijalari kuchli va zaif tomonlarini tushunishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boyicha, harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi
2. G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O'zMU, 2003.
3. Qodirov M. E. Texnologiya fanini mazmunan modernizatsiyalash hamda sifat va samaradorligini oshirish usullari// Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. 158-161 bet.